XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-022-5-76-K/24 Uchquduq tumani

Tumanning 2025-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi” 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga, O‘zbekiston Respublikaning 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda Navoiy viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01-12/20-04-32/1015-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining “Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Uchquduq tumanining mahalliy budjeti 2025-yil uchun daromadlari 52 084,0 mln. so‘m, xarajatlari 95 657,0 mln. so‘m, jami ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori 43 573,0 mln. so‘m tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Uchquduq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining “Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qarori 4-ilovasi bilan tasdiqlangan Uchquduq tumani budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman g‘aznachilik xizmati tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2025-yil uchun tuman budjet daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yil uchun tumanning tuman budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 1 202,0 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman budjetining 2025-yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi (Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmadan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantiriladi) miqdorida shakllantirilsin.

Tuman mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 593,72 mln. so‘mni hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2025-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, tegishli ajratma qilingan qismi;

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

Davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushgan tushumlar

b) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno) tuman mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

10. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlari, farmoyishlari tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tumandagi tegishli korxona va tashkilotlarning takliflari hamda murojaatlariga asosan tegishli xarajatlarga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

tuman hokimi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berish sharti bilan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qaror va farmoyishlarni qabul qiladi.

11. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba va zaxira jamg`armasi hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

12. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov), davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov), mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) tegishli mas’ullar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”da belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlardan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasi oshirilishini;

kadastr agentligining tuman bo`linmasi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov), tegishli mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin. Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish

hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Uchquduq tuman bo‘limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Tumandagi mahalla va ovul fuqarolar yig‘inlari raislari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va videomateriallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini “e-auksion” elektron platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari bilan birgalikda tumanda fermer xo‘jaliklari va boshqa korxonalarga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov) va boshqa tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

21. Qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 17 193,3 mln so‘mi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rnatilgan tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimligi mazkur tegishli qonun va qarorlarga asosan tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini tegishlililigi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borsin.

23. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bobomurodov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun tegishliligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

24. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Usmanov) qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (R.Qodirova), “UCHQUDUQ” gazetasi tahririyatiga:

mazkur qaror “UCHQUDUQ” gazetasida rasmiy e’lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Xudoyqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



YELMURATOV
UCHKUN
FAYZULLAYEVICH

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Uchquduq tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2025-yil asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**52 084 000,0**
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	693 000,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 893 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	20 886 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 400 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 400 000,0
6	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	133 000,0
7	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	639 000,0
8	Aylanmadan olinadigan soliq	3 522 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	18 518 000,0

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Uchquduq tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**95 657 079,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	95 657 079,0
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**27 165 619,0**
	shu jumladan	
	joriy xarajatlar	27 165 619,0
	“Mening maktabim”	1 143 553,0
2	**Madaniyat bo‘limi**	**2 547 014,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 547 014,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"**	**34 650,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 650,0
4	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**97 719,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	97 719,0
5	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha**	**4 497 867,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 497 867,0
6	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish soxasi bo‘yicha**	**881 141,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	881 141,0
7	**“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lariga**	**225 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	225 000,0
8	**Ichki xo‘jalik avtomabil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**18 199 330,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 199 330,0

10	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga**	**18 469 863,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 469 863,0
11	**“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi**	**17 193 314,0**
12	**Zahira jamg‘armasi xarajatlari**	**1 202 009,0**

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Tuman (shahar) nomi	Ajratmalar me’yori
	Uchquduq tuman	
1	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
2	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	50
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
6	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	100
6	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	100
7	Aylanmadan olinadigan soliq	100
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**52 084 000,0**	**95 657 079,0**
Uchquduq tumani	52 084 000,0	95 657 079,0

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2025 -yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	***Shu jumladan,***	
		Viloyat budjetidan ajratiladigan transfert miqdori	*Shundan, respublika budjetidan transfert miqdori (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan)*
JAMI	**43 573 079,0**	**43 573 079,0**	
shundan			
Uchquduq tumani	43 573 079,0	43 573 079,0	

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-022-5-76-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**593 720,0**
	Shundan	
1	Uchquduq tumani	593 720,0